



# ILMIY AXBOROTNOMA

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

**SCIENTIFIC REPORTS**

**2016-yil 2-son (96)**

**GUMANITAR FANLAR SERIYASI**

**Tarix. Falsafa. Sotsiologiya. Filologiya. Pedagogika.  
Psixologiya. Iqtisodiyot.**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.

Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan. Tarix, falsafa, sotsiologiya, filologiya, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida chop qilingan maqolalar doktorlik dissertatsiyalari himoyasida hisobga olinadi.

**BOSH MUHARRIR:**

**A. R. XALMUXAMEDOV, f.-m. f. d., professor**

**BOSH MUHARRIR**

**A.J.XOLIQOV, k.f.d., dotsent**

**O'RINBOSARLARI:**

**A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

<b>M. X. ASHUROV</b>	- O'zFA akademigi
<b>M. M. KAMILOV</b>	- O'zFA akademigi
<b>B. J. AXMEDOV</b>	- f.-m. f. d., professor
<b>A. S. BEGMATOV</b>	- fals.f. d., professor
<b>T. M. MO'MINOV</b>	- O'zFA akademigi
<b>X. I. IBRAGIMOV</b>	- ped.f.d., professor
<b>X. T. MAMATOV</b>	- yu.f.d., professor
<b>U.S. SALIXBAYEV</b>	- f.-m.f.d., professor
<b>E. G'. G'OZIYEV</b>	- psixol.f.d., professor
<b>F.I. TOSHEV</b>	- «Zarafshon» gazetasi muharriri
<b>T. SH. SHIRINOV</b>	- tar.f.d., professor
<b>M. Q. QURONOV</b>	- ped.f.d.professor
<b>B. O. TO'RAYEV</b>	- fals.f.d., professor

**GUMANITAR FANLAR SERIYASI**

**TAHRIRIYAT HAY'ATI:**

<b>M.D.DJURAKULOV</b>	- tar.f.d., professor
<b>I. M. SAIDOV</b>	- tar.f.d., professor
<b>O. M. G'AYBULLAYEV</b>	- fals.f.d., dotsent
<b>N. SH. SHODIYEV</b>	- ped.f.d., professor
<b>B. Y. YO'L DOSHEV</b>	- fil.f.d., professor
<b>Sh. S. SAFAROV</b>	- fil.f.d., professor
<b>D. I. SALOHIY</b>	- fil.f.d., professor
<b>S. A. KARIMOV</b>	- fil.f.d., professor
<b>M. Q. PARDADEV</b>	- i.f.d., professor
<b>M. M. MUXAMMEDOV</b>	- i.f.d., professor
<b>B. X. TO'RAYEV</b>	- i.f.d., professor
<b>Sh. R. BARATOV</b>	- psixol.f.d., professor
<b>B. Q. QODIROV</b>	- psixol.f.d., professor
<b>Z. Yu. MUQIMOV</b>	- yu.f.d., professor
<b>J. Ya. YAXSHILIKOV</b>	- fals.f.d., professor

**Koordinator:**

**A. Sh. YARMUXAMEDOV – f. - m.f.n.**

**Muharrirlar:**

<b>B. S. G'OYIBOV</b>	- t.f.n., dotsent
<b>R. TOSHQUVATOVA</b>	- fals.f.n., dotsent
<b>N. U. ARABOV</b>	- i.f.n., dotsent
<b>H. BERDIYEV</b>	- fil.f.n., dotsent
<b>N.NASRULLAYEVA</b>	- fil.f.n., dotsent

## MUNDARIJA/CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ

## TARIX/HISTORY

S.A.Djumanov	<b>Mustaqillik yillarda tibbiy kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi islohotlar tarixiga doir</b> About the history of reforms in the sphere of training and advanced training of medical specialists during the years of independence	5
A.Abdullayev	<b>Amudaryo bo‘limida ijtimoiy-siyosiy va huquq-tartibot sohasida yuz bergan o‘zgarishlar (XIX asrning oxiri XX asr boshlari)</b> Changes in the systems of social-political and lawful orders in Amudarya region (the end of the XIX- th century and the beginning of the XX- th century)	8
R.B.Siddiqov	<b>O‘zbekiston – Xitoy madaniy-ma’rifiy aloqalariga oid(internet ma’lumotlari asosida)</b> Cultural and educational cooperation between Uzbekistan and China (on the base of Internet material)	12
F.E. Toshboyev	<b>Qadimgi Sug‘dga chorvadorlar madaniyatining ta’siri xususida</b> About the effect of cattle breeders’ culture of ancient Sogd	15
Sh.A. Indiaminova	<b>Sug‘dda diniy munosabatlar (Xitoy yilnomalarining nashrlari asosida)</b> The religion attitude in Sogd (on the base of Chinese chronicles)	18
A.J.Bodirov	<b>O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan rayonlashtirish davrida Zarafshon vohasi</b> Zarafshon valley in the period of territorial division in Central Asia	21
F.Sh.Shamukaramova	<b>Samarqand osori-atiqalarini o‘rganish va saqlashda Vasiliy Vyatkinning xizmatlari</b> Vasiliy Vyatkin’s role in research and preservation of Samarkand monuments	26
U.Xudayarov	<b>Sovet hokimiysi yillarda O‘zbekistonda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatlari tarixi xususida</b> About the census of Uzbekistan population in the period of Soviet government	32

## SOTSILOGIYA/SOCIOLOGY

T.Matibayev	<b>Sharq ijtimoiy fikrida hamkorlik g‘oyasi: nazariyadan amaliyotga</b> The idea of cooperation from Oriental social point of view: from theory to practice	37
-------------	--	----

## FALSAFA/PHILOSOPHY

J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev, R.M.Karimova	<b>Yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishi va uni bartaraf etish chora-tadbirlari</b> The moral deformation of youth and the ways of its solution	40
N.E.Saliyeva	<b>Yoshlar ideosferasi shakllanishi jarayonini o‘rganishning dolzarbliyi va ahamiyati</b> The importance and significance of studying the process of youth ideasphere formation	47
H.A.Djurakulov	<b>O‘zbekistonda ekologik huquqiy ongni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari</b> The main directions of forming ecological thinking in Uzbekistan	50
F.A.Erkabayeva	<b>O‘lkamizda amaliy va tasviriy san’at evolyutsiyasi</b> On the evolution of the fine arts and crafts of our land	53
S.D.Norqulov	<b>Ijtimoiy ongning yaratuvchanlik xususiyatlari: ijtimoiy-falsafiy tahlil</b> The creation of peculiarities of the public consciousness: social-philosophical analyses	57
I.Ch.Shermanov	<b>«Moddiy ishlab chiqarish» va «ma’naviy ishlab chiqarish» tushunchalarini falsafiy kategoriya sifatida talqin etish muammolari</b> The problems of interpretation of material and spiritual productions as philosophical categories	62

<b>FILOLOGIYA/PHILOLOGY</b>		
<b>T.Valiyev</b>	<b>Kibernetik leksikografiya va til korpusi muammolariga doir</b> About the cyber lexicography and problems of language system	67
<b>A.G.Yuldashev</b>	<b>Idiomatik qo'shma so'zlarning kognitiv-semantik tahliliga doir</b> Cognitive-semantic analysis of idiomatic compound words	70
<b>Н.А.Вохидова</b>	<b>Народные песни и мелодии в творчестве Гоголя</b> Folk songs and melodies in Gogol's works	74
<b>М.Х.Эгамова</b>	<b>Особенности нарративных структур в цикле «Галатепинцы» М.Доста</b> The peculiarities of narrative structures in the cycle of "Galatapenses" by M.Dost	77
<b>A.C.Абдуллаева</b>	<b>Тематические уровни в романе И.С.Тургенева «Отцы и дети»</b> Thematic levels in the novel "Fathers and children" by I.S. Turgenev	81
<b>Yu.O.Ne'matova</b>	<b>Namangan viloyati oykonimlarining yasalish modellari xususida</b> About oiconym formation modules of Namangan region	84
<b>D.E.Jabborova</b>	<b>O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligidagi Cho'lpon ijodiga ilk munosabatlar</b> The first attitude to Chulpon' works in Uzbek literature study and critics	89
<b>A. Shernazarov</b>	<b>Qashqadaryo viloyati tojik folklorini jamlash va tadqiq etish</b> Selection and research of Tajik folklore in Kashkadarya region	92
<b>Д.Р.Нарзуллаева</b>	<b>Проблема национального своеобразия американской драмы в оценке англо-американского литературоведения</b> The problem of national identity of American drama from the point of view of Anglo-American literature study	95
<b>X.X.Berdiyev</b>	<b>Arxaik affiksli o'tovsozlik terminlari haqida</b> About archaic affixes of yurta terms	99
<b>PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS</b>		
<b>И.М.Лутфиллаев, М.А.Файзиев</b>	<b>Педагогические аспекты разработки компьютерных имитационных моделей предметов высшего образования</b> Pedagogical aspects of development of computer simulation model of objects of higher education	105
<b>A.I.Inatov</b>	<b>Ta'limg-tarbiya sifatini ta'minlashda pedagogik takt</b> Pedagogic tactic of supporting the quality of educational work	109
<b>A.I.Inatov, A.N.Abdullayev</b>	<b>Innovatsiyaviy ta'limg va uning ilmiy-uslubiy jihatlari</b> Innovation education and its scientific – methodical sides	112
<b>Д.М. Мурадова</b>	<b>Развитие английской разговорной речи в многоязычной аудитории на материале Present Continuous Tense</b> Development of English speaking in multilingual auditory on the material of Present Continuous Tense	117
<b>N. Z. Abidova</b>	<b>Maktabgacha yoshdagagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining o'ziga xosligi</b> The peculiarities of the speech of preschool age children with visual impairments	120
<b>D.A.Shayzakova</b>	<b>O'quvchining erkin, ijodiy va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi zamonaviy texnologiyalar</b> Modern technologies leading to free, artistic and comprehensive development of students	124
<b>F.Z.Yusupova</b>	<b>Mustaqil ta'limgni to'g'ri tashkil etish – ijodiy qobiliyatni o'stiruvchi omildir</b> Correct organization of self-study as a factor of creative skills developing	129
<b>А.А.Мустафокулов, Х.А.Абдувалиев</b>	<b>Основные критерии качества образования</b> The basic criteria of education quality	132
<b>I.B.Mattiiev</b>	<b>Islom aqidalarida salomatlikni asrashga yo'naltirilgan qadriyatlar tizimi</b> The system of values directed at health preserving in Islam	134

<b>Н.М.Ахмедова</b>	<b>О выдающемся художнике средневековья – Бехзада</b> About the outstanding artist of middle ages – Behzad	137
<b>PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY</b>		
<b>A.M.Shonazarov</b>	<b>Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligi</b> Social-psychological and professional competence of the directors of secondary schools	142
<b>Z.H.Qorayev</b>	<b>Ijtimoiy psixologik munosabat mezonlari tanlanishining o'ziga xosligi</b> The peculiarities of choosing social psychological attitude requirements	145
<b>M.I.Salaxutdinova, I.Yu.Madatov</b>	<b>Qo'rquv va fobiya paradokslari</b> Paradoxes of fear and phobia	147
<b>З.А.Абидова</b>	<b>Критерии, показатели и качества толерантной личности</b> Criteria, indicators and qualities of tolerant personality	150
<b>G.B.Amirova</b>	<b>O'quvchi yoshlarda ustanovkalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari</b> Social-psychological peculiarities of personality formation in young students	153
<b>F.A. Akramova, R.Sh.Toshkuvatova</b>	<b>Yoshlarni oilaga tayyorlash omillari va psixologik xususiyatlari</b> The sources and psychological features of preparing young people for creating family	156
<b>U.A.Butayeva</b>	<b>Pedagogik kompetensiyani diagnostika qilish imkoniyatlari</b> Possibilities of the diagnostics pedagogical competency	162
<b>IQTISODIYOT/ECONOMICS</b>		
<b>O.M.Ruzibayev</b>	<b>Milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni</b> The ways of increasing of the efficiency of small business and private entrepreneurship in the national economics	167
<b>S.Q.Qurbanov</b>	<b>Innovatsion rivojlanish sharoitida qishloq mehnat bozorida ishechi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmini o'ziga xos xususiyatlari</b> The features of economic mechanism of increasing labor force competitiveness in the countryside labor market in the terms of innovation development	169
<b>G'.Sh.Qaxorov</b>	<b>Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ish bilan bandlik</b> Employment in conditions of innovative economy	174
<b>B.S.Boltayev</b>	<b>Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnatni tashkil qilish orqali xizmat sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari</b> The main ways of improving quality of services by improving the organization of labor in personal service establishments	177
<b>A.S.Djurayev</b>	<b>Oliy ta'lim muassasalarida rahbar kadrlarni ta'lim menejmenti bo'yicha malakasini oshirishning metodologik asosi</b> Methodological basis of the professional development of executives higher educational establishments	182
<b>O'QITISH METODIKASI/TEACHING METHODOLOGY</b>		
<b>B.M.Boboqulov, Sh.Sharifov, S.Boboqulov</b>	<b>Oliy ta'limda boshqaruvi tizimining ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sir etuvchi omillari</b> The factors influencing on the quality and effectiveness of high education management system	186
<b>N.Shodihev, R.Musinova</b>	<b>Boshlang'ich matematika ta'limi jarayonida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash</b> Moral educating of pupils in the process of primary stage of teaching mathematics	189
<b>Universitetimiz hayotidan–University life</b>		193

2. Барсук Р. Ю. Основы обучения иностранному языку в условиях двуязычия. – Москва: Высшая школа, 2000. – 145 с.
3. Гурвич П. Б. Осуществление мышления средствами национальных языков и его значение для методики. // Сборник статей Воронежского ун-та, 2001. – С.134-145.
4. Ильясов И. О. К вопросу о переносе иноязычных (речевых грамматических) навыков в условиях билингвизма // В сборнике Иностранные языки в школах Узбекистана. – Махачкала: Дагучпедгиз, 1993. – С.73-82.
5. Леонтьев А. А. Психологические единицы и порождение речевого высказывания. – Москва, 1999. – 114 с.
6. Щерба Л.В. Преподавание иностранных языков в средней школе. – Москва: Изд-во АПН, 1947. – 342 с.

**Д.М. Мурадова**

**PRESENT CONTINUOUS TENSE  
МИСОЛИДА КЎПТИЛЛИК  
АУДИТОРИЯДА ИНГЛИЗ ТИЛИДА  
СЎЗЛАШУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

Мазкур мақола ҳозирги замон Continuous Tense мисолида кўптиллик ўзбек мактабларида инглиз тилида сўзлашувни ривожлантириш муаммосига хамда инглиз феълининг ушбу замонни рус ва ўзбек тиллар билан қиёслаш методига асосланган холда ўргатиш назариясига бағишенланган.

**Kalit so‘zlar:** кўптиллик, кўпмиллатлик, она тили, чет тили, аналог, турли хил.

**D.M. Muradova**

**DEVELOPMENT OF ENGLISH SPEAKING  
IN MULTILINGUAL AUDITORY ON THE  
MATERIAL OF PRESENT CONTINUOUS  
TENSE**

The present article investigates the problem of development of English speaking in multilingual Uzbekistan schools on the material of English Present Continuous Tense and demonstrates method of explanation of this tense form of a verb in comparison with the Russian and Uzbek languages.

**Keywords:** multilingual, multinational, mother tongue, foreign language, analogue, diversity.

**UDK: 376.3**

**МАКТАБГАЧА YOSHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR  
NUTQINING O‘ZIGA XOSLIGI**

**N. Z. Abidova**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola tiflopedagogika fani va amaliyotining dolzarb muammosi - ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqining o‘ziga xosligi yoritilgan. Maqlada muammoga oid tadqiqot ishlarning qisqa ta’rifi va tegishli xulosalar keltirilgan. Shuningdek, katta maktabgacha yoshdagil bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** nutq, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, sensor tajriba, eksperimental tekshirish.

Kishilarni mukammal, yetuk inson bo‘lib shakllanishida aqliy qobiliyat va nutqiy malakalar katta o‘rin tutadi. Bola nutqining shakllanishi uni atrof-muhit bilan yaqinroq tanishishga asos bo‘ladi. Tor ma’noda nutq – til normalarini egallamoq, ya’ni talaffuz, urg‘u, so‘z ishlatishni, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmox, shuningdek tilning tasviriy vositalaridan turli sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o‘qish madaniyatini egallash demakdir. Nutq madaniyatini egallash orqali kishi yetuklik sari bir qadam tashlagan bo‘ladi. Insoniyat umummadaniyatning katta tarkibiy qismini nutq madaniyati tashkil etadi. Madaniyat nutqining fazilatlari deyilganda, uning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, ifodaviyligi, boyligi, sofligi kabilar tushuniladi. Ulug‘ vatandoshimiz Abu Nasr Forobi (870-950) to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarishda mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo‘rligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va javob berishga kelganimizda, bu haqida bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar”, – deb hisoblayman. Ma’lumki, nutq hodisalari alohida-alohida hodisalar emas, balki o‘zaro chambarchas bog‘langan hodisalardir. Shuning uchun, nutqning turlari sathlarini fonetika, lug‘at, morfologiya, sintaksisni alohida-alohida o‘rganish, shu sath birligining amaliy qo‘llanishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarni mukammallashtirish bilan birga olib borilishi kerak.

Ma'lumki, bola nutqni ijtimoiy va biologik omillar asosida egallaydi, ana shu omillar birining buzilishi yoki yetishmay qolishi nutq buzilishiga olib keladi. U yoki bu daradajada nutqi buzilgan bola tevarak-atrofdagilarning sust, korreksion pedagogik ta'sirisiz bolalar nutqining har taraflama ruhan, jismomon rivojlanishini ta'minlash, maktabga tayyorlash mumkin emas.

S.Y.Rubenshteyn nutqning ahamiyati haqida quyidagi fikrni bildiradi: "Filoginezda bo'lgani kabi ontogonezda ham nutq dastlabki aloqa vositasi, shuningdek, nomlash anglash vositasi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik nutq shunday qurolga aylandiki, uning yordamida inson o'z fikrlarini bayon etadi".

M.B.Mejekovskaya fikricha, nutq inson faoliyatining barcha ruhiy ko'rinishlariga jalb qilingan: uning idroki, xotirasi, tafakkuri, tasavvurini axloqiy qarashlarining barchasi "nutqlashgan"dir. Ularning nutqiy rivojdanishini erta korreksiya qilish – umumi va maxsus pedagogikaning muhim muammosidir.

Nutq bolalarning har tamonlama kamol topishida muhim o'rin tutadi. Bola nutqining to'liq shakllanishi asosan 6 yoshga to'g'ri keladi. Bu yoshda nutqi normal rivojlanayotgan bola nutqdagi barcha tovushlarni, talaffuz etishni, so'zlarni o'z o'rnida qo'llashni, o'z fikrini mantiqiy to'g'ri bayon etishni mukammal egalaydi. Lekin ba'zi bolalarda nutq shakllanishida o'z tendoshlariga nisbatan orqada qolish, nutq buzilishlarining turli ko'rinishlari uchraydi. Har bir nutq kamchiligi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, u bola rivojlanishiga turlicha salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq buzilishlariga ega bolalarning nutqi ko'pincha normal rivojlanishdan orqada qolishi, aqliy-hissiy sferalarini takomillashmasligiga olib keladi; bolalarni maktabga tayyorlashda bir qator qiyinchiliklarni kelitirb chiqaradi. Bolalarda uchraydigan nutqiy nuqsonlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda nutqning tovush tomonida kamchilik bo'lsa, boshqalarda esa nutqni to'liq rivojlanmasligi yoki nutq tempi va ritmida kamchiliklar uchraydi.

Ravon va yaxshi rivojlangan nutq shaxsnинг to'laqonli muloqoti va rivojlanishining vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutq nuqsonlarini korreksiyalash bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish masalasi hozirgi zamon logopediyasida muhim o'rin egallaydi, turli nutq nuqsonlarining holati va uni rivojlanish metodikasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, bolalarda nutqning barcha tomonlarini rivojlanish va kamchiliklarini korreksiyalashda eng samarali maktabgacha yosh hisoblanadi. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasining dasturini o'zgartirishdagi qiyinchiliklari nutqning yetarli darajada rivojlanmaganligi, shu jumladan, lug'atning hajmi va sifati bilan bog'liq bo'ladi.

Ko'rish nuqsoniga ega bolalar nutqining shakllanishi uning bilish faoliyatining rivojlanishida katta ahamiyatga ega, chunki so'z, uning ma'nosi faqatgina nutqning emas, balki tafakkurning ham vositasidir.

Respublikamizda ko'rish nuqsoniga ega bolalarning nutq nuqsonlarini aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha maxsus ilmiy izlanishlar olib borilmaganligi, o'zbek tilida ko'rish nuqsoniga ega bolalarni og'zaki nutqining rivojlanish bo'yicha metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalarning yetarlicha emasligi muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Defektologiya fani ko'rishdagagi nuqsonlar bolalarning nutqiy rivojlanishida aks etishi to'g'risida materiallar to'planganiga qaramay, monokulyar xarakterdagi ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqiy rivojlanmaganlikning turlari va xususiyatlari haqidagi masala maxsus adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan. Nutqiy malakalarni to'g'ri egallashning ahamiyati, shuningdek, zaif ko'radigan bolalarda nutqiy rivojlanmaganlikni korreksiyalash mexanizmlari va yo'llari haqidagi masalalarning yetarlicha ishlanmaganligi mazkur muammoning dolzarbligi to'g'risida so'z yuritish uchun asos bo'ladi.

Ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko'radigan boladagidan ko'ra murakkab sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning buzilishi va ko'rishdagagi buzilishlar murakkab nuqson bo'lib, bunda nutqiy va ko'rishdagagi kamchiliklar o'rtasida ma'lum aloqadorlik va o'zaro ta'sir kuzatiladi.

Tiflopedagog va tiflopsixologlar (L.S.Vigotskiy, T.P.Golovina, M.I.Zemsova, A.G.Litvak, L.I.Solnseva va b.) tadqiqotlarida aniqlanishicha, ko'rish nuqsoni tufayli tarbiyalanuvchilarining 30% dan ortig'ida nutqiy yetishmovchilik kuzatiladi [2,3,5.10]. L.S.Volkova, A.L.Lukoshevichene, S.A.Pokupneva, I.V.Pokupneva, I.V.Novichkova, Ye.V.Shlay va b. ishlarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nafaqat nutqning yaxlit funksional tizim sifatidagi buzilishi bilan kechadigan tizimli buzilishlar (nutqning to'liq rivojlanmaganligi, fonetik-fonematik nutq kamchiligi), balki idrok, xotira, diqqat, tasavvur va mantiqiy fikrlash jarayonlari rivojlanishida og'ishlar ham kuzatilishi o'z tasdig'ini topgan. Shu sababli bunday bolalar sujetni mustaqil rejalashtirish, leksik-grammatik kategoriyalar bilan

mustaqil operatsiyalash, nutqiy materialni grammatic rasmiylashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladi [8,9,10]. Shu sababli ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni bog‘lanishli monologik nutqqa (ya’ni, o‘z fikrini aniq va izchil, mantiqiy tizimli va tugal, leksikadan foydalanishda va mazmunan aniq, grammatic rasmiylashtirishga ko‘ra to‘g‘ri, mustaqil va erkin bayon qilish, jumlalarni qurishga) o‘rgatish korreksion-pedagogik jarayonda alohida o‘rin tutadi.

Ko‘rish idrokining buzilishi bolalarning sensor tajribani mustqil tarzda to‘plashida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa nutqning psixik bazasi shakllanishini kechiktiradi. Sensor jarayonlarning past darajasi, o‘z navbatida, saqlangan psixik funksiyalarining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi (L.S.Volkova, L.S.Vigotskiy, T.P.Golovina, L.P.Grigureva, M.I.Zemsova, V.A.Kruchinin, A.G.Litvak, I.S.Morgulis, L.I.Plaksina, L.A.Rudakova, L.I.Solnseva va b.) [2, 3, 4, 5, 6, 7, 9]. Shu sababli ko‘rish patologiyasi bo‘lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko‘radigan bolalarnikidan murakkabroq sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning va ko‘rishning buzilishi murakkab nuqson bo‘lib, ularda nutqiy va ko‘rish nuqsonlarning ma’lum aloqa va o‘zaro ta’siri kuzatiladi.

Nutqiy va psixik funksiyalarining shakllanmaganligi nafaqat bilish faoliyatining shakllanishiga ta’sir o‘tkazadi, balki zaif ko‘radigan bolalarning xususiyatlari: ehtiyojlar dinamikasida, ularni qondirishning qiyinligi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni (perseptiv qobiliyatlarning yetarlicha rivojlanmasligi); hissiy tasavvurlar sohasidagi cheklanganlik bilan belgilangan qiziqishlar doirasining torligi; nazoratni talab qiladigan faoliyat turlariga qobiliyatlarning sustlanishi; ichki holatlarning tashqi namoyon bo‘lishi cheklanganligi va boshqalarni keltirib chiqaradi.

Ko‘rish nuqsonlarining mavjudligi xarakter qirralarinining (ayniqsa, emotsiyal-irodaviy sohada) shakllanishiga salbiy ta’sir qiladigan sharoitlarning yuzaga kelishiga ko‘maklashadi, natijada egotsentrizm, mustaqillikning yo‘qligi, ishonuvchanlik, negativizm, qiziquvchanlikning yo‘qligi va b. shakllanadi.

Ko‘rish faoliyatining buzilishi ijtimoiy aloqalarni qisqartirib, makonda mo‘ljalga olishni va faoliyatning ma’lum turlari bilan shug‘ullanishni cheklab, atrof voqelikni bilishda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ko‘pchiligidagi aloqalarning nutqiy tizimlari ko‘rgazmali obrazlarga yetarlicha tayanchsiz shakllanadi, shu sababli so‘zlarning muayyan ma’nolari qashshoqlashishi, zarur so‘z zaxirasining yo‘qligi, nutqning mazmun tomoni yetarlicha rivojlanmasligi kuzatiladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda biz eksperimental tekshirish ishlarimizni o‘tkazish davomida maktabgacha yoshdagisi olti yoshli bolalar mustaqil nutqining xususiyatlarini o‘rganishga e’tiborni qaratdik.

Bolalar og‘zaki nutqini tekshirishda biz O.N.Usanova, G.V.Chirkina, L.E.Levina, A.V.Yastrebova, L.R.Mo‘minova va M.Yu.Ayupovalarning bolalar nutqini tekshirish metodikalariga asoslangan eksperimental tekshirish ishlarini olib bordik [1].

Eksperiment individual shaklda olib borildi. Bunda bola bilan emotsiyal muloqotga kirishish uchun suhbatdan foydalanildi. Shuningdek, anamnestik ma’lumotlar to‘plandi, har bir bolaning psixologik- pedagogik tafsifnomasi haqida ma’lumotga ega bo‘lish uchun tarbiyachi va logoped bilan suhbat o‘tkazildi.

Ta’kidlovchi eksperimentda taqiqotning vazifalariga mos keluvchi mustaqil kichik ijodiy hikoya tuzish metodidan foydalanildi.

**Mustaqil kichik ijodiy hikoya tuzish.** Bolaning oldiga ixtiyoriy tartibda ma’lum sujetni aks ettiruvchi 3-4 ta rasm qo‘yiladi. So‘ng bolaga rasmlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘yish taklif etiladi. Shundan so‘ng rasmlar asosida hikoya tuzish so‘raladi.

Jihoz: sujetli rasmlar. Ta’kidlovchi eksperimentda quyidagi mavzularga oid predmetli rasmlardan foydalanildi:

- 1-to‘plam: bolalar maydonchasida;
- 2-to‘plam: kun tartibi;
- 3-to‘plam: mavsumiy o‘zgarishlar ( bahor);
- 4-to‘plam: oshxonada.

Tekshiriluvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarilishi 4 ballik tizimda baholandi:

4 ball – bola barcha topshiriqlarni to‘g‘ri va mustaqil bajardi.


3 ball – bola topshiriqlarni bajarishda yakka xatolarga yo‘l qo‘ydi, yordamchi savollar yordamida to‘g‘riladi.

2 ball – ayrim hollarda topshiriqlarning mazmunini tushuntirish talab qilinadi, bola topshiriqlarni yordam asosida, sekinlashgan tempda bajardi.

1 ball – topshiriqning mazmunini tushuntirish talab qilinadi, bola topshiriqlarni yordam asosida, ya’ni, xatolarni to‘g‘rilash, qayta urinishlar yordamida bajardi. Bolaning javoblari aniqliq kiritishni talab etadi.

0 ball – bola yordamdan foydalana olmadi, to‘g‘ri javob bera olmadi

Ta’kidlovchi eksperimentni Hamza tumani ko‘zi ojiz bolalar maktab-internatining maktabgacha ta’lim bo‘limi tarbiyalanuvlari bilan olib bordik va quyidagi natijalarga erishdik.



Yuqoridagi diagrammaga ko‘ra, berilgan 1-, 3-, 4-to‘plam topshiriqlari bolalarga biroz murakkablik qildi, ya’ni barcha topshiriqlarni to‘g‘ri va mustaqil bajargan bolalar kuzatilmadi. Tekshirluvchilarining 33 % iyuqoridagi to‘plam topshiriqlarini bajarishda yakka xatolarga yo‘l qo‘ydiilar va ushbu xatolarini yordamchi savollar yordamida to‘g‘riladilar. 1-, 4-to‘plam topshiriqlarini bajarish jarayonida topshiriqning mazmunini tushuntirish talab qilib, topshiriqlarni yordam asosida, sekinlashgan tempda bajargan bolalar soni bola 33 % ni tashkil etdi.

3-to‘plam topshiriqlarini bajarish jarayonida 50 % tekshirluvchi bahor faslining o‘ziga xos tabiatini tasvirlashda topshiriqning mazmunini to‘la tushunmasdan, topshiriqni yordam asosida, sekinlashgan tempda bajardi. Tekshirluvchilarining 17% yordam asosida, ya’ni, xatolarni to‘g‘rilash, qayta urinishlar yordamida bajardi.

Tekshirluvchilarga kun tartibi (2-to‘plam) mavzusiga oid kichik ijodiy hikoya tuzish topshirig‘i yaqin bo‘lgani bois uni yaxshi bajardilar, ya’ni 17% tekshirluvchi topshiriqni to‘g‘ri va mustaqil bajardi, 33 % topshiriqni bajarishda yakka xatolarga yo‘l qo‘yishdi va o‘z xatolarini yordamchi savollar yordamida to‘g‘riladi, 50% topshiriqni bajarishda yordam unumli foydalangan holda, sekinlashgan tempda, xatolarini to‘g‘rilash yo‘li bilan bajardi.

Yuqorida bayon etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida yordamdan foydalana olmagan, to‘g‘ri javob bera olmagan bolalar kuzatilmadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi ko‘rishiда nuqsonga ega bolalar nutqini shakllanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha berilgan topshiriqlarni bajara olmasligini kamchilik sifatida o‘rganmadik. Bolani bunday vazifalarni bajarishga maxsus o‘rgatish zarur. Ko‘rish nuqsoniga ega bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni, maxsus usul va vositalarini o‘z ichiga qamrab oluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim tizimi asosida samarali amalga oshirish mumkin.

Ko‘rish nuqsoniga ega maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarini yosh, kompensator va individual o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib nutqini rivojlantirishga majmuaviy (kompleks) yondashuv maxsus maktabgacha ta’lim muassasi sharoitida korreksion-pedagogik jarayon samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtida zaif ko‘rvuchi bolalarning nutqini o‘zaro muloqotlar orqali rivojlantirishda shaxsiy munosabatlarni hisobga olgan holda pedagog va bolalar guruhi (pedagog-bola, bola-bola) faoliyat ko‘rsatishlari zarurligi ma’lum. Chunki guruhdagi faoliyatlar bola shaxsiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zaro muloqot zaif ko‘rvuchi bolalarda fikr almashish va so‘zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi. Ta’limning interfaol metodlari, o‘quv xonasida logoped bilan o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik muhitini yaratish uchun real imkoniyat beradi. Interaktiv metodlarga asoslangan texnologiya bilan qurollangan logoped ijodiy hammualliflik tartibida ishslash, asosli o‘zgartirishlarga tayyorgarlik va

mas'uliyatli qaror qilishga tayyorgarlikka o'rganadi. Zero, ta'limning interfaol metodlari defektologga: bolalarning mashg'ulot mavzusiga qiziqishini ta'minlash; ta'limiy materiallarni yanada puxta o'zlashtirishga erishish; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish; barcha tarbiyalanuvchilarni faol o'quv faoliyatiga jalb etish uchun sharoit yaratish; guruhda maqbul psixologik mikroiqlimni ta'minlash va boshqa imkoniyatlarni beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati., 2007 y.
2. Volkova L.S. Выявление и коррекция нарушений устной речи у слепых и слабовидящих детей. - М., 1991, С. 25.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь.-М., 1982. - Т. 2. – С. 5-361
4. Головина Т.Н. К вопросу об особенностях процесса понимания у слабовидящих школьников 1-класса.- Л.,1995, – С. 133-144.
5. Григорьева Г.В. Особенности формирования и развития средств общения у дошкольников с нарушениями зрения // Дефектология. 1996. №4. С. 84-89.
6. Литвак А.Г. Психология слепых слабовидящих. - М., 2006. – С. 336.
7. Моргулис И.С. Теоретические основы коррекционно-воспитательного процесса младших классах школы слепых: Автореферт .канд.пед.наук. - М.,1984. – С. 30.
8. Mo'minova L.R., Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati., 2013. – 236 – 241 б.
9. Плаксина Л.И. Теоретические основы коррекционной работы в детском саду для детей с нарушением зрения. - М., 1998. – С.262.
10. Психология воспитания детей с нарушением зрения / Под ред. Л.И. Солнцевой, В.З. Денискиной. - М., 2004. – С.320.

**H.3. Abidova**

### **ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ**

Статья посвящена важной проблеме тифлопедагогической науки и практики - особенностям развития речи детей с нарушениями зрения. В ней приводится краткий анализ работ, посвященных проблеме и делаются соответствующие выводы, освещены методы и формы работы по развитию речи старших дошкольников.

**Ключевые слова:** речь, дети с нарушениями зрения, сенсорный опыт, экспериментальные методы.

**N. Z. Abidova**

### **THE PECULIARITIES OF THE SPEECH OF PRESCHOOL AGE CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENTS**

The article is devoted to the important issue of typhlitis pedagogical science and practice - features of speech development of children with visual impairments. It provides a brief analysis of the works devoted to the problem and makes appropriate conclusions, enlightens methods and forms of work on speech development of senior preschool children.

**Keywords:** speech, children with visual impairments, sensory experience, experimental methods.

**UDK: 37.011.33**

### **O'QUVCHINING ERKIN, IJODIY VA HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHINI TA'MINLOVCHI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**D.A.Shayzakova**

*Toshkent davlat agrar universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchining erkin, ijodiy va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi hamda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni takomillashtirishda qo'llaniladigan texnologiyalar, ularning o'quvchilar mustaqil ishlash samaradorligini oshirish, ijod qilish va ko'nikma malakalarini mustahkamlash, bilimini xolisona baholash, o'quv materiali mazmuni shakli va usullarini doimiy yangilab borish hamda malakali mutaxassislarini tayyorlash sifatini doimiy ravishda oshirib borishni ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratishi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zi:** bilim, ko'nikma, malaka pedagogik, axborot, modulli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlik.

## **MUALLIFLAR DIQQATIGA!**

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiya, ismi, otasining ismi –o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

## **MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!**

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiyligini qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

### **MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavida ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

### **MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:**

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E-mail:[axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz)

# **SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

**SCIENTIFIC REPORTS**

Mas'ul kotib:  
Musahhih:  
Texnik muharrirlar:  
Dizayner sahifalovchilar:

**R. Sh.Toshquvatova**,fals.f.n.,dotsent  
**M.M. Ro'ziboyev**  
**S. D. Aronbayev**  
**X. Sh. Tashpulatov**  
**A. I. Inatov**

Muassis: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.

Telefon: (8 366) 239-14-07, Faks: (8 366) 239-13-87  
e-mail: [axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz)

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.  
Bosishga 04.05.2016 yilda ruxsat etildi. Qog'ozo'lchami A-4. Nashriyot hisobtabog'i 10,00.  
Buyurtma raqami 23. Adadi 500 nusxa.

*Manzil:* 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.  
*SamDU bosmoxonasida chonetildi.*